

Tabiat muhofazasi va monitoringida yangi tizim

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Zoologiya institutida yirtqich qushlarni muhofaza qilish va ilmiy monitoringni kuchaytirish maqsadida elektron chip o'rnatish ishlari amalga oshirildi.





Mazkur tadbirda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Zoologiya instituti, Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi hamda Toshkent hayvonot bog'i mutaxassislari ishtirok etdi.

Tadbir jarayonida itolg'i, lochin va mallabosh lochinga maxsus elektron identifikatsiya chiplari o'rnatilib, har bir qushga biriktirilgan raqamlar skaner orqali tekshirildi va ro'yxatga olindi.

Ushbu ishlar yirtqich qushlarni hisobga olish, ularning harakatini monitoring qilish, noqonuniy aylanmani oldini olish hamda muhofaza choralari yanada kuchaytirishga qaratilgan.

Elektron chiplash tizimi orqali qushlar holatini uzluksiz kuzatish, ularni muhofaza qilish bo'yicha ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilish imkoniyati yaratiladi.